

O'ZBEK ADABIYOTIDA MEMUAR JANRINING TAKOMIL TARIXI³¹**Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi**

Tayanch-doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nuriddinsoliyev499@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Memuar so'zi fransuzcha "xotiralar", "esdaliklar" degan ma'nolarni bildirib, turli manbalarda turlicha nomlar bilan uchratish mumkin: memuarlar, xotiralar, esdaliklar, eslatmalar kabi. Memuarlarning asosiy vazifasi muallifning xotiralar yoki biron bir tarixiy hujjatlar asosida o'tmish voqealarini aks ettirishdir. Mazkur janr na'munalarining badiiyligi masalasi uzoq yillar davomida adabiyotshunoslar tomonidan muhokama qilinib, badiiy va tarixiy jihatlari uyg'unligi masalasida izlanishlar olib borilgan. Bu masala ayniqsa, Vissarion Belinskiy tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, u memuarlarni, nafaqat, tarixiy hujjatlar to'plami emas, balki inson ruhiy kechinmalari va davrning ijtimoiy muhitini badiiy ifodalash vositasi sifatida qaragan. Keyinchalik, uning an'alarini davom ettirgan adabiyotshunos olimlar tomonidan, memuar janrining o'ziga xosligi masalasi yanada chuqurroq tahlil qilingan.

Ushbu maqolada memuar janrining o'ziga xos xususiyatlari shartli ravishda belgilab olinadi va ularning avtobiografik asarlar, hujjatli-tarixiy ocherklar va kundaliklardan farq qiluvchi jihatlarga alohida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, memuar janrida yaratilgan asarlarni ham o'z navbatida, bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlari asosida guruhlariga ajratilib tasniflanadi.

KALIT SO'ZLAR

Memuar janri, xotiralar, real voqelik, siyosiy xronika, biografik materiallar, ilmiy materiallar, bayon uslubi, hujjatli-tarixiy ocherk, avtobiografiya.

Received: March 10, 2025**Accepted:** April 4, 2025**Available online:** May 2, 2025

³¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Muhammadzokirova M. O'zbek adabiyotida memuar janrining takomil tarixi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 372-389.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE MEMOIR GENRE IN UZBEK LITERATURE

Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon kizi

Doctoral student

Tashkent State Uzbek language and literature

university named after Alisher Navoi

Tashkent, Uzbekistan

Email: nuriddinsoliyev499@gmail.com

ABSTRACT

The word “memoir” comes from the French words “memories”, “recollections” and can be found in different sources under different names: memoirs, recollections, memoirs, notes, etc. The main task of memoirs is to reflect past events based on the author's memoirs or historical documents. Literary scholars have been discussing the artistry of examples of this genre for many years, and research has been conducted on the harmony of artistic and historical aspects. The issue was theoretically substantiated, specifically by Vissarion Belinsky, who viewed memoirs not only as a compilation of historical records, but also as a medium for artistic expression of human emotional experiences and the social environment of the era. Later, literary scholars who continued his traditions further analyzed the uniqueness of the genre of memoirs.

Within the context of this article, the distinct characteristics of the memoir genre are tentatively outlined, with an emphasis on how they differ from other forms of autobiographical literature, such as documentary-historical essays or personal diaries. Works created in the genre of memoir are also divided into groups based on their distinctive features.

KEY WORDS

Memoir genre, memoirs, real events, political chronicles, biographical materials, scientific materials, narrative style, documentary-historical essay, autobiography.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ЖАНРА МЕМУАРОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Мухаммадзокирова Мохинур Мухторжон кизи

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет имени Алишера

Навои, Институт узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан

E-mail: nuriddinsoliyev499@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Название жанра мемуаров происходит от французского слова "mémoire" (память, воспоминания) и может встречаться в разных источниках под различными названиями: мемуары, воспоминания, записки и т.д. Основная задача мемуаров - отразить прошлые события на основе воспоминаний автора или исторических документов. Литературоведы уже много лет обсуждают проблему художественности произведений этого жанра, а также проводят исследования о взаимодействии в нем художественных и исторических аспектов. Теоретическое обоснование вопроса дал, в частности, В.Г. Белинский, который рассматривал мемуары не только как собрание записей о прошлом, но и как средство художественного выражения эмоционального опыта личности и социальной обстановки исторической эпохи. Позже литературоведы, продолжившие его традиции, углубили анализ жанрового своеобразия мемуаров.

В содержании данной статьи предварительно обозначены отличительные черты мемуарного жанра, с акцентом на то, чем он отличается от других форм автобиографической литературы, таких как документально-исторические очерки или личные дневники. Произведения, созданные в жанре мемуаров, также подразделяются на группы в зависимости от их отличительных особенностей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Жанр мемуаров, воспоминания, реальная действительность, политическая хроника, биографические материалы, научные материалы, стиль повествования, документально-исторический очерк, автобиография.

KIRISH

Memuarlar muallifning o'tmishda o'zi bevosita ishtirok etgan yoki shohidi bo'lgan voqealar haqidagi xotiralari bayon qilinuvchi adabiy asar hisoblanadi. Ular noyob shaxsiy hayot tajribasi va davrning tarixiy voqealari haqidagi ma'lumotlar manbasi sifatida, adabiyotning muhim tarkibiy qismidir. Mazkur janrning shartli ravishda belgilab olingan o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Memuarlar - o'tmish haqidagi muallif shaxsan ishtirok etgan yoki guvohi bo'lgan voqealar asosida yozilgan asarlardir.

2. Memuarlar uchun voqeaning birinchi shaxs nomidan bayon qilinishi, voqealar va faktik materiallarning ko'pligi, muallifning tasvir obyektiga subyektiv munosabatining o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi xarakterlidir.

3. Memuarlarda real voqelik, ko'pincha, siyosiy xronika, biografik va ilmiy ahamiyatga ega materiallar bilan uzviy bog'lanib ketadi;

4. Unda badiiy asarlarga xos syujet usullari, nisbatan, kam ishlatiladi. Ammo muallif tasviriy vositalardan o'rni bilan foydalanadi.

Memuar asarlar o'zining bayon uslubi, voqealarning sujetli tarzda berilmasligi va vaqt tartibiga rioya qilinishi bilan kundaliklarga, materialning haqqoniyligi va to'qimaning yo'qligi jihatidan hujjatli-tarixiy ocherklar bilan yaqin turadi. Biroq, memuarlarni ulardan farq qiladigan qator muhim xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, ularni qiyosiy o'rganganimizda quyidagi manzarani kuzatamiz:

1. Kundalik birovlarining o'qishi uchun mo'ljallanilmaydi, ular muallifning o'zi uchun yoziladi.

2. Kundaliklar tezis sifatida, qisqa ma'lumotlar tarzida belgilab boriladi.

3. Kundaliklarda memuarlardagi izchillik talabi qo'yilmaydi.

Mazkur muhim xususiyatlar kundaliklarni memuarlardan farqlash uchun asos bo'ladi.

Memuarlarning hujjatli-tarixiy ocherklardan farqi shundaki, memuarlarda muallif voqealarni umumiy tarzda emas, balki o'zi ko'rgan tomonlari, undan olgan taassurotlari va tajribaviy xulosalarini bayon qiladi. Shunday ekan, memuarlar subyektivlik xususiyatiga ega. Shu sababli, ulardan ilmiy maqsadlar uchun foydalanganda, tanqidiy nuqtayi nazardan yondashish taqozo etiladi.

Memuarlar va avtobiografik asarlarni farqlovchi asosiy xususiyat shuki, memuar asarda muallifni voqelik (o'zi uchratgan kishilar, guvohi bo'lgan yoki qatnashgan voqealar) qiziqтира, avtobiografik asar muallifi diqqat markazida o'zining voqelik bilan uzviy aloqadagi shakllanish tarixi, qalb va ongi tarixi turadi. Avtobiografik asar yaratilish jarayonida muallif o'z hayotini qaytadan yashab ko'radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Shuning uchun ham avtobiografiyalar aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (Imomova G., 2018, 162)

Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning [„Badoye' ul-vaqoe"](#), Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" va "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari memuar janrining noyob namunalari hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Memuar janrida yaratilgan asarlar ham, o'z navbatida, bir-biridan turli xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, ularni ayrim belgilarini inobatga olib, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Muallifning o'z hayoti, bolaligi, yoshlik davri, ijodiy va kasbiy faoliyati, boshidan kechirgan muhim voqealar haqida hikoya qilinuvchi memuarlar;
2. Muallifning yaqinlari, ota-onasi, ustozlari, do'stlari yoki tarixiy shaxslarga oid xotiralari bayon qilinuvchi memuarlar.

1. Muallifning o'z hayoti, bolaligi, yoshlik davri, ijodiy va kasbiy faoliyati, boshidan kechirgan muhim voqealar haqida hikoya qilinuvchi

memuarlar. Bu tipdagi asarlar muallifning shaxsiy tajribalariga asoslangan bo‘lib, uning hissiyotlari, dunyoqarashi va hayotiy saboqlarini aks ettiradi. Ayni xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan adabiy yaratishlarga, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asarlarini kiritishimiz mumkin.

Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni edi. Memuar janrining noyob namunasi hisoblangan “Boburnoma” asari uning nechog‘lik serqirra ijodkor ekanligining yaqqol misolidir.

“Boburnoma”da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda bo‘lib o‘tgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallifning hayoti, ijodiy va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo 1494-yil 9-iyunda Axsi qo‘rg‘onidan jarga qulab vafot etadi. Mazkur falokatdan keyin temuriylar an‘anasiga muvofiq 12 yoshli valiahd Bobur Mirzo podshoh bo‘ladi. Uning nodir asari “Boburnoma” ayni voqealar bayoni bilan boshlanadi:

“Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida, tarix sakkiz yuz to‘qson to‘qquzda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshta podshoh bo‘ldum.” (Zahiriddin M. B., 2020, 7)

Otasi vafotidan so‘ng 12 yoshli Bobur Mirzo hokimiyatni boshqarishga kirishadi. Bu borada unga otasining sodiq beklari Shayx Mazidbek, Boboquli Boboalibek va Qosim Qavchinlar yaqindan yordam beradilar. Buyuk Temur davlatining poytaxti bo‘lgan Samarqandni egallash har bir temurzoda uchun eng katta maqsad bo‘lgan. Xususan, Bobur ham 1495-yilda Samarqandni bir muddat

qamal qiladi. Ammo, Sulton Ali do'stlik va sulh taklifi bilan chiqadi. Bobur Mirzo uning so'zini qabul qilib, ortga qaytadi. Oradan ikki yil vaqt o'tib 1497-yilda Bobur yana Samarqandga yurish boshlaydi. Yetti oy davom etgan beayov janglardan so'ng Bobur Samarqandni egallaydi. Ammo, g'alaba shukhi uzoq davom etmadi. Talon-torajlar natijasida Samarqand nochor ahvolga tushib qolgan edi: "Bu jihatdin cherik eli ko'p tanqisliq torttilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar." (Zahiriddin M. B., 2020, 76)

Bu orada Bobur Mirzoning sog'ligi yomonlashdi. Shunchalikki, "...to'rt kungacha tilim tutuldi, og'zing'a paxta bila suv tomizurlar erdi" (Zahiriddin M. B., 2020, 78) deya xastalikda kechgan kunlarni xotirlaydi.

Boburning Samarqandda og'ir betoblighi va o'lim to'shagida yotganidan xabar topgan vaqtinchalik Andijonni boshqarish uchun qoldirilgan Ali Do'st Tag'oyi vahimaga tushib, Andijonni Jahongir Mirzo tarafdorlariga topshiradi. Bu voqeadan Bobur 1498-yil fevral oyida Andijon sari yo'lga chiqib, Xo'jandga yetganda xabar topadi. "Zaxiradin va urushar kishidin qo'rg'onda hech kamlik yo'q edi. G'oyatash ul munofiqi namakharom mardakning nomardlig'i edi" (Zahiriddin M. B., 2020, 79) deya yozadi bu xiyonat va nomardlikdan qattiq qayg'uga tushgan Bobur.

Keyinchalik Samarqand taxti talabgorlaridan biri Xoja Yahyo uni Boburga jangsiz topshiradi, ammo Shayboniyxon Samarqandga katta qo'shin bilan tahdid solayotganidan xabar topgan bobur bir qancha beklari bilan Keshga ketadi. Shunga qaramay, Bobur Samarqandni egallash orzusidan voz kechmadi. Shahar atrofida uni egallash rejasini tuzdi va nihoyat Samarqandning "Feruza" darvozasidan yorib kirib, poytaxt shaharni ikkinchi marta qo'lga kiritdi. Ammo, quvonchli kunlar uzoqqa cho'zilmadi. Bobur qo'rg'onni berkitishga majbur bo'ldi. Olti oy davom etgan mashaqqatli qamalda xalq og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Bobur har tomonga ko'mak ilinjida elchilar yubordi, lekin hech kimdan madad kelmadi.

Boburning chorasizligidan foydalanib, Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Bobur taklifni qabul qilib, tunda o'z yaqinlari bilan Samarqandni tark etadi. Bu vaziyatda Bobur Samarqandni tark etganidan emas, egachisi Xonzodabegim Shayboniyxon qo'lida qolganligidan chuqur qayg'uga tushdi. "Boburnoma"da muallif ushbu voqeani "mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti" deya afsus va nadomat bilan xotirlaydi.

"Boburnoma" asari Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li, harbiy yurishlari, muvaffaqiyat va mag'lubiyatlari hamda ularga nisbatan ichki hissiyotlari va qalb tug'yonlari ifodasi bo'libgina qolmay, hozirgi tarmoqlashgan fanlarning ellikka yaqin sohalariga to'g'ri keladigan benihoya ko'p ilmiy ma'lumotlar manbai hamdir. Jumladan, Bobur Hiloliy shaxsi va ijodi haqida shunday yozadi: "Yana Hiloliy edi. Bu tarixda ham bordur. G'azallari hamvor va rangin va kam xadshadur. ... Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttuz-qirq ming bayt yodida bor emish." (Zahiriddin M. B., 2020, 256)

Zikr etilgan Hiloliy haqidagi ma'lumotlar davomida Bobur uning ijodi bilan bog'liq adabiyot nazariyasining mazmun va kompozitsiya muammolariga alohida ahamiyat beradi, obrazlar mantig'i masalasini qattiq tanqid ostiga oladi: "Bir masnaviysi bor "hafif" bahrida "Shoh va Darvish"qa mavsum, agarchi ba'zi baytlari tavra voqe bo'lubtur, vale bu masnaviyning mazmun na ustuxonbandlig'i bisyor kovak va xarobtur. Shuaroyi motaqaddam ishq va oshiqliq uchun masnaviylarkim aytibdurlar, oshiqliqni erga va ma'shuqluqni xotung'a nisbat qilibturlar. Hiloliy darvishni oshiq qilibtur, shohni ma'shuq." (Zahiriddin M. B., 2020, 256)

Shu bilan birga, "Boburnoma"da tilshunoslikka oid ilmiy ma'lumotlar ham talaygina. Xususan, asarda hozirgi Qashqadaryo viloyatining markazi bo'lgan Qarshi shahri nima munosabat bilan shunday nomlangani ilmiy asoslab berilgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qarshi so'zi mo'g'ulcha "qabriston" ma'nosini

bildiradi. Shahar aholisi mo'g'ul istilosi qurboniga aylangandan buyon shunday nomlanadi.

Asarda, shuningdek, Xo'jand va Konibodom o'rtasidagi Hodarvesh cho'lining nomlanishi bilan bog'liq bir voqea keltirilgan. Hikoya qilinishicha, Xo'jand va Konibodom orasida bir dasht bo'lib, bu hududda hamisha kuchli shamol esadi. Qish kunlarida bir necha darvesh bu dashtda qattiq shamolga yo'liqib, bir-birlarini topolmay, "Ho-darvesh!", "Ho-darvesh!" deya halok bo'libdilar. Shundan beri bu dashtni Hodarvesh deb atalarkan.

"Boburnoma"da adabiyotshunoslik va tilshunoslikdan tashqari yana bir qator sohalar bo'yicha aniq, ilmiy asoslangan ma'lumotlarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Zayniddin Mahmud ibn Abduljamil nasrning maktub, ariza, hikoya kabi ko'plab turlarida, badiiy, saj' uslubida samarali ijod qilgan. Vosifiy – taxallusi. Uning bir qancha she'riy va nasriy ijod namunalarini o'z ichiga olgan [„Badoye' ul-vaqoe“](#)(„Nodir voqealar“) asarida Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi 1517-yildan 1532-yilgacha bo'lgan davrdagi ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayot aks ettirilgan. Asar muqaddima va 54 bobdan iborat bo'lib, uning hamma qismlari yagona syujetga ega emas. Asar qismlarini bir-biriga bog'lab turuvchi umumiy jihat bu Zayniddin Vosifiy shaxsidir. U bir vaqtning o'zida voqealarning markaziy qahramoni va hikoyachisi hamdir.

Asarda muallif tarixiy-siyosiy voqealarni ularning bevosita ishtirokchisi nuqtayi nazaridan aks ettirgan. Jumladan, muallifning ta'kidlashicha, hijriy 918, milodiy 1512-yilda Samarqandda vazminchilik va qahatchilik shu darajaga yetgandiki, faqir-u och-yalong'ochlar tunlarni Parvin xirmonidan boshqoq terish xayolida o'tkazar edilar. Shunday zalvorli kunlarning birida bir tolibi ilm Zayniddin Vosifiy huzuriga kelib, o'z ahvollaridan xabardor etib, yordam so'raydi. Tolibi ilmlarning ahvoli shu darajaga yetgan ediki, "... ulardan ikkitasi ochlik

betoqatligidan chidayolmay, o'z po'stinlarini sotib yebdilar. Va sovuq shiddatidan jonlarini jon ato etganga topshiribdilar.” (Vosifiy Z., 1979, 29)

Shu kuni kechqurun Zayniddin Vosifiyning yaqin do'stlaridan biri Abdulali Balxiy ham tolibi ilmlardan xavotirda Vosifiyning hujrasiga keladi. Ikki do'st maslahatlashib, qahatchilik yili ta'rifida Abusaid Sultonni madh etib qasida yozish fikriga kelishadi. Podshohdan in'om olib, tolibi ilmlarga yordam berish umidida qasidani shu tundayoq yozib tugatishadi. Tongda uni ko'chirib, egasiga topshirish uchun Konigilga yo'l olishadi. Podshoh qasida in'omi uchun Vosifiy va Balxiyga o'n bosh semiz qo'y, yigirma man un, yuz xoniy mablag' va o'tin uchun to'rt daraxt berilishini amr etadi. Vosifiy ularni madrasaga olib boradi va o'zi ham o'sha qishni tolibi ilmlar va boshqa bir nechta faqirlar bilan madrasada o'tkazadi.

1512-yil yozida esa Samarqandga Amir Najmi soniy sakson minglik qo'shin bilan bostirib keladi. Ayni paytda Samarqandda bo'lib turgan va voqealarning bevosita guvohi bo'lgan Vosifiy mazkur bosqinni shunday ta'riflaydi: “... Najmi soniy sha'n-u sharaf va qahramonlik osmonida shunday javlon urardiki, ko'k gumbazining olamni yorituvchi oftobi uning nazarida zarradan ham past turardi. Qizilboshlar firqasi tug'yon va najotsizlik vodiysida qo'shaloq otlik bo'lib, jiddu jahd ko'rsatardi.” (Vosifiy Z., 1979, 40)

Muallifning ta'kidlashicha, bu paytda Ubaydullaxon va Jonibek sulton Karmina atroflarida, Ko'chkunjixon va Temurxon qolgan boshqa sultonlar bilan Miyonkolda edilar. Ularning barchasi chekinishga qaror bergan bir paytda, sultonlar naqibi Sayyid Abdulla Turkiston viloyatidan Buxoroga keladi. Ubaydullaxon bilan uchrashib, sultonni Buxoro uchun kurashishga undaydi. Shu payt Najmi soniy Qarshini egallab, yalpi qirg'in qilayotganligi va hech bir jonzodni tirik qoldirish niyatida emasligi haqida xabar keladi. Muallif bu xabarni eshitgan Ubaydullaxonning holatini shunday tasvirlaydi: “Ubaydullaxon yig'lamoqqa tushdi va dedi: “Ey mahdum, bu jamoaga qanday qarshi turib bo'ladi?”” (Vosifiy Z., 1979, 39)

Yuqoridagi parchadan anglashiladiki, Vosifiy voqealarni jonli va real tarzda tasvirlagan. Muallif hukmdorni faqat madh etmaydi, balki uning zaif tomonlarini ham yaqqol ochib beradi. Memuarning haqiqiylik va subyektivlik xususiyatlari ham aynan shu o‘rinlarda o‘z aksini topadi.

Shuningdek, asarda Navoiy, Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Changiy, Ustod Hasan Udiy, Hofiz Basir, Ustod Shayxi Noyi, mavlono Binoiy kabi ijodkorlar haqida ham ishonchli ma’lumotlar keltirilgan.

2. Muallifning yaqinlari, ota-onasi, ustozlari, do‘stlari yoki tarixiy shaxslarga oid xotiralari bayon qilinuvchi memuarlar.

Mir Alisher Navoiy nafaqat so‘z mulkining sultoni, buyuk davlat va jamoat arbobi, balki ustoz-shogirdlik, do‘st-birodarlik munosabatlarida o‘ziga xos yuksak axloqiy mezonlarni namoyon etgan siymodir. Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad kabi o‘z davrining ko‘plab taniqli kishilari bilan yaqin do‘stlik, ustoz-shogirdlik aloqalarini o‘rnatgan. Do‘stlarining xotirasini abadiylashtirish maqsadida ularning hayot va ijod yo‘li davomida sodir bo‘lgan, muallif shaxsan ishtirok etgan yoki guvohi bo‘lgan real voqealar asosida “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” memuarlarini yaratgan.

Navoiy Sayyid Hasan Ardasher bilan ilk marta hijriy 860, milodiy 1455-56-yillarda Ibrohim Sulton saltanat taxtini egallagan bir davrda uchrashadi. Ayni chog‘da Navoiy 14-15 yoshlarda edi. Kichik yoshidan shunday hammaslak topganidan behad quvonadi. Hasan Ardasher ham Navoiyning eng yaqin do‘sti, otasi o‘rnidagi murabbiyi, ustoziga aylanadi.

Navoiy o‘zining va ustozining uchrashuvdan keyingi holatini shunday tasvirlaydi: “Saltanat taxti Sulton Ibrohim mirzog‘a qaror tutgandakim, tarix sekkiz yuz oltmish erdi, bu faqir alar suhbatig‘a musharraf bo‘ldum. Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig‘a yetmasam erdi, sabru toqatim qolmas erdi va alar ham kelib ahvol so‘rarlar erdi: “tashvishe bo‘lmamish bo‘lg‘aykim, bukun sendin xabar topa olmaduq”.(Navoiy A., 3)

Anglashiladiki, Ardasher ham Navoiyga qattiq bogʻlanib, unga yoʻlboshchilik qiladi va yangi sheʼrlar yozishga ruhlantiradi. Navoiy esa oʻz asarlarining Xurosonda mashhur boʻlib, Ardasher tomonidan majlislarda oʻqilganini faxr bilan eslaydi. U turkiy adabiyotda Mavlono Lutfiy va Mavlono Muqimiyni, forsiy adabiyotda esa Hofiz Sheroziy va Saʼdiy Sheroziyni ulugʻlagan. Ayniqsa, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarining katta qismini yod bilgan. Bundan tashqari, Muhammad Gʻazzoliyning “Kimyoyi saodat” hamda Shayx Aziz Nasafiyning risolalarini yuqori baholab, ulardan tez-tez iqtibos keltirib turgan. Muallif bu misollar orqali Sayyid Hasanning adabiyotga boʻlgan mehrini va uning ijodkorlar orasidagi nufuzini koʻrsatadi. Aslida, uning xonadoni doimo adabiyot ixlosmandlari, shoirlar, olimlar, sozandalar va xonandalar jam boʻladigan maskan boʻlgan. Navoiy ham bu xonadon hech qachon sanʼat va ilm ahlidan xoli boʻlmaganini taʼkidlaydi.

Asarda qayd etilishicha, Sayyid Hasan sarf (morfologiya) va nahv (sintaksis), lugʻat (leksika, leksikologiya), arabiyat (arab tili va adabiyoti), mantiq, kalom (Qurʼon nazariyasi), fiqh (islom huquqi), hadis, tafsir (Qurʼon maʼnolarini sharhlash ilmi), sheʼr, muammo (biror soʻzni yashirib, uni keltirib chiqarish yoʻliga ishoralar berilgan sheʼriy janr), taʼrix (biror voqea-hodisa, tugʻilish yo vafot etish, asarning tugallanishi kabilarni abjad hisobi vositasida biror soʻz yoxud soʻzlar yigʻindisi orqali keltirib chiqarishga asoslangan sheʼriy janr), nujum (astronomiya va astrologiya), advor (musiqi nazariyasi) kabi sohalarni chuqur oʻzlashtirgan. Shunga qaramay, ilmiy masalalar koʻtarilgan davralarda, masalani koʻpchilikdan yaxshi tushunsa ham, boshqalar hijolat chekib qolmasin uchun, kamtarlik bilan sukut saqlab oʻtirishni afzal koʻrar ekan.

Husayn Boyqaro saltanat taxtini egallagach, ayni davrning taniqli, ziyolilari podshoh xizmatiga jam boʻladilar. Hukmdorga Ardasherining hikmatlarga toʻla suhbatlari zavq bagʻishlardi. Shu boisdan unga lavozim taklif etiladi: “...chun podshoh alarni podshohona rioyatlar va darveshona yumshoq va chuchuk soʻzlar

bila sayd qilib erdilar, yo‘q deya olmadilar”. (Navoiy A., 7) Sayyid Hasan Ardasher podshoh saroyida maslahatchi etib tayinlanadi. U podshohning sodiq hamrohi va sirdoshi, davlat ishlarida ham ishonchli maslakdoshi bo‘lib qoladi. Oltmish yoshlarigacha podshoh xizmatida bo‘lgan Sayyid Hasan qalbida haqiqiy maqsad, tug‘ma so‘fiylik tuyg‘usi g‘oliblik qila boshlaydi. Podshohdan nafaqaga chiqish uchun izn so‘raydi, ammo hukmdor tomonidan bu so‘rov ma‘qullanmaydi. Shundan keyin Sayyid Hasan: “...ikki yilg‘acha podshohning muborak xotiri uchun cheriklar mashaqqatin tortib safarlar balosig‘a o‘zlarin solib yurudilar va in‘omu ulufa mutlaqo olmadilar va darveshona kisvat bila mulozamat qilurlar erdi.” (Navoiy A., 8)

Muallifning ta’kidlashicha, Ardasherining Sayyid Muhammad ismli odob-axloqda tengsiz, ilm-ma’rifatli yakkayu yagona o‘g‘li bo‘lib, Alisher Navoiy ham bu yigitni o‘z o‘g‘liday ko‘rgan. Sayyid Muhammad 14 yoshida vafot etadi. Ushbu musibatli kunda Ardasherining yonida turgan sodiq do‘sti, dardkashi Alisher Navoiy mash‘um voqeani shunday tasvirlaydi: “Ani chiqorur kun arig‘ to‘n kiyib, arig‘ dastor chirmab, motamiylarg‘akim, anduhu iztirob yuzidin beixtiyor yig‘lar erdilar, alar nasihat qilib, taskin berur erdilar, xususan bu faqirg‘a. To madfang‘a, bu faqir yasag‘on hazirag‘a elttilar, alar o‘zlari sunnat tariqi bila maqbara ichiga tushub, aziz farzandni shar’ vajhi bila oxirat yeriga qo‘yub, tengriga topshurub, talabi g‘ufron uchun duolar qilib chiqdilar...” (Navoiy A., 9)

Shuningdek, Navoiy mazkur asarda Ardasherining go‘zal fazilatlari va hikmatli so‘zlari haqida ham batafsil to‘xtalib o‘tadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asari Ardasherining hayoti va faoliyatining real voqealar asosida tasvirlanishi, o‘sha davrning siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotining aks ettirilishi va tarixiy shaxslar va tarixiy davrga nisbatan muallifning subyektiv munosabati kabi xususiyatlarga ega ekanligi mazkur asarning memuar janri na‘munasi ekanligining yaqqol isbotidir.

“Holoti Pahlavon Muhammad” asarini esa Navoiy yoshligidan birga o‘tib ulg‘aygan do‘sti, qirq yillik qadrdoni Pahlavon Muhammad hayoti va ijodi, birgalikda boshdan kechirgan voqealari xotirasiga bag‘ishlanadi. Asarda Pahlavon Muhammad Xorazmning buyuk pahlavoni, mashhur kurashchisi (kushtigiri) va iste’dodli shoir sifatida tasvirlanadi. Navoiy uning nafaqat jismoniy kuchi, balki musiqa, adabiyot, tibbiyot, fiqh va nujum kabi ilmning ko‘plab sohalarining yetuk bilimdoni bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi.

Asarda ta’kidlanishicha, Navoiy yigitlik chog‘ida zamon va davrning balolari boshiga yog‘ilib Mashhadga boradi. U yerga yetib borgach, og‘ir kasallikka yo‘liqadi. Tasodifan, Pahlavon ham o‘sha paytda Mashhadga edi. U Navoiyning ahvolidan xabar topishi bilanoq har kuni hol so‘rashga kelib, mehribonlik va g‘amxo‘rlikning barcha talablarini bajo keltiradi. Navoiyning holatini o‘zidan-da yaxshi tushunadigan tabib sifatida muolajalarni o‘zi amalga oshiradi. Shunday muolaja paytida Navoiyning cho‘ntagida bir parcha qog‘oz borligini ko‘radi, ochib, unda yozilgan 7 baytli g‘azalga ko‘zi tushadi. Mazkur g‘azalni yod olib, qog‘ozni yana qayta joyiga solib qo‘yadi.

Muolajadan keyingi suhbatda Pahlavon Muhammad Navoiydan turkiygo‘y shiorlardan kimni afzal ko‘rishini so‘raydi. Navoiy Lutfiyni ko‘rsatadi. Pahlavon Muhammad Nasimiyni emas Lutfiyni afzal ko‘rish sababini so‘raganda, Navoiy Nasimiy botiniy ma’nodagi she’rlar yozishini aytadi. Pahlavon Navoiyning yangi yozilgan g‘azalini o‘qib, Nasimiyning she’rlari botiniy bo‘lsa ham, zohiriy talqin qilish mumkinligini ta’kidlaydi. Navoiy hayron bo‘lib cho‘ntagiga qo‘l soldi, qog‘oz turibdi. G‘azalni qayerda eshitganligini so‘rasa, Pahlavon o‘n ikki yil oldin Abulqosim Boburning bir majlisida eshitib, yoqtirib, yod olganini aytganda Navoiy yanada taajjublanadi.

Keyingi kunlari ham Navoiy shu g‘azal haqida gap boshlab, uni haqiqatda ham eshitganmi yo‘qligiga aniqlik kiritishga harakat qiladi. Shunda Pahlavon ayni majlisda o‘zi bilan birga yana uch to‘rtta pahlavon qatnashganlarini, ular ham

mazkur gʻazalni yod olganlarini aytib, ularni Navoiyning oldiga olib keladi. Navoiy ulardan ham oʻzi yozgan gʻazalni eshitib, gʻoyat hayratga tushadi.

Maʼlum boʻlishicha, Pahlavon Muhammad Navoiyning biroz chalgʻishi va dardlari arishi uchun bu voqealarni oʻylab topgan ekan. Navoiy mazkur voqeani oʻziga xos minnatdorchilik va ehtirom bilan eslaydi.

Ushbu asar – “Holoti Pahlavon Muhammad” va “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarlarining janri masalasida turli manbalarda turlicha maʼlumotlar koʻzga tashlanadi. Jumladan, ayrim manbalarda agiografik asar sifatida taʼriflansa, ayrimlarida manoqib deya tavsiflanadi: “...mazmun va janr jihatidan toʻliq agiografik yoʻsinda yaratilgan asarlarga Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyimu-l muhabbat”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Mahmud” kabi asarlarni kiritishimiz mumkin” (Xayrullayeva H., 2023, 37); “Alisher Navoiyning manoqib asarlari: “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad”...” (Xoʻjaniyozova Sh., 2022, 8). Eʼtiborimiz markazidagi asarlarni yuqoridagi kabi taʼriflangan manbalarni yana koʻplab keltirishimiz mumkin.

Oʻz-oʻzidan savol tugʻiladi, Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari memuar janri naʼmunasimi yoki agiografik, manoqib asarlarmi?

“Agiografiya” soʻzi yunoncha “hagios” – muqaddas, ilohiy va “grapho” – yozaman soʻzlaridan olingan boʻlib, paygʻambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini tasvirllovchi asarlardir. Mazkur janrning oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, “...muallif avliyolar hayotnomalarida fikr avvalida oʻquvchilarga avliyolarning avliyoligi taʼriflarga sigʻmasligi haqida uqtiradi, shundan keyin uni odatga koʻra, qahramonlik takomilining hamma bosqichlari boʻyicha qatʼiy xronologik tartibda voqif eta boradi, avliyoning soʻnggi maqto

soʻzlaridan soʻng muallif uning oʻlimidan keyingi moʻjizalarini alohida bayon etadi, avliyoning xizmatlarini ibodatlari haqidagi xabarnoma bilan tugatadi. Bu qismning hammasi xilma-xil uslubli va turfa janrli boʻladi. Baʼzida turli mualliflarga tegishli boʻlgan va, hatto, turli davrlarda yozilgan, lekin ularning hammasi bitta ansamblga yigʻilgan va bitta vazifaga boʻysundirilgan: uning avliyoligi va eʼtiqodi kuchidan hayratlangan, ruhiy kayfiyati uqtirilgan, avliyoligi koʻklarga koʻtarilgan.” (Лихачев Д., 1973, 52)

Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻatida agiografiya istilohining muqobili sifatida “manoqib” termini keltirilgan. Agiografik, yaʼni manoqib asarlarga Sobir Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado”, Mirzo Salimiyning “Kaʼb ul-ahbor hikoyalari” kabi asarlarni kiritishimiz mumkin. “Ravzat ush-shuhado” asarida Odam Atodan boshlab Muhammad (sallallohu alayhi vasallam), xalifalar, Hazrati Ali va Paygʻambarimiz (sallallohu alayhi vasallam) nabiralari Imom Hasan va Imom Husayn voqealari bayon etilgan boʻlsa, “Kaʼb ul-ahbor hikoyalari”da muqaddas kitoblar nozil boʻlgan paygʻambarlar: Dovud (alayhissalom), Muso (alayhissalom), Iso (alayhissalom) va Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)lar zikr etiladi.

Demak, Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari agiografik asarlar emas, balki tom maʼnoda memuar janri naʼmunalari hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, har bir janr singari memuarlar ham oʻziga xos taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu esa, hozirgi davrga kelib mazkur janrning oʻziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan yanada chuqurroq oʻrganilishini, memuar janri naʼmunalarini oʻzaro farqli xususiyatlari asosida tasniflanishini taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zahiriddin M. B. Boburnoma.- T.: Ijod-press, 2020.
2. Vosifiy Z.M. Badoe ul-vaqoe.-T.: G'afur G'ulom, 1979.
3. Navoiy A. (2025, 10-mart). Holoti Sayyid Hasan Ardasher. *Ziyouz.com kutubxonasi*.<https://n.ziyouz.com/library/category/40-alisher-navoiy-asharlari?download=1722:alisher-navoiy-holoti-sayyid-hasan-ardasher>.
4. Xayrullayeva H. Sharq islom adabiyotida yaratilgan agiografik asarlarda adabiy janrlar//Euroasian journal of social sciences, philosophy and culture, 3(1) – T., 2023. – B. 37 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7559589>
5. Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2022.
6. Лихачев Д. Развитие русской литературы X–XVII веков (эпохи и стили). Л.: Наука. Т., 1973.
7. Imomova G. Adabiyot nazariyasi fanidan o'quv-uslubiy majmua. T., 2018.
8. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi:(XVI-XIX asr I yarmi). – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
9. Xatamov N., Sarimsaqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.- T.: O'qituvchi, 1979.
10. Yusupova D. Adabiyot. Universal qo'llanma. T.,2013.

REFERENCES

1. Zahiriddin, M. B. (2020). Baburnama. Tashkent, Ijod-press.
2. Vasifi, Z.M. (1979). Badoe ul-vaqoe. Gafur Gulyam Publishing House of Literature and Art.
3. Navoiy, A. (2025, March 10). Status of Sayyid Hasan Ardasher. Ziyouz.com library.<https://n.ziyouz.com/library/category/40-alisher-navoiy-asharlari?download=1722:alisher-navoiy-holoti-sayyid-hasan-ardasher>.

4. Khayrullaeva, H. (2023). Literary genres in hagiographic works created in Eastern Islamic literature. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 3 (1), 37. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7559589>
5. Khojaniyozova, Sh. (2022). Lexicon of Alisher Navoi's manoqib works. Abstract.
6. Likhachev D. (1973). Development of Russian Literature of the 10th-17th Centuries (Epochs and Styles). L.: Nauka.
7. Imomova, G. (2018). Educational and Methodological Complex on Literary Theory.
8. Jumakhoja, N., Adizova, I. (2020). History of Uzbek Literature: (16th - first half of the 19th century). Innovation-Enlightenment.
9. Khatamov, N., Sarimsakov, B. (1979). Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Literary Terms. Teacher.
10. Yusupova, D. (2013). Literature. Universal Guide.